


FIZIKADAN TESTLAR TO'PLAMI

2017-YIL



SO'ZBOSHI

Hurmatli abituriyent! Siz 2017-yil imtihonda fizika fanidan tushgan testlar bilan qisqa vaqt ichida tanishib chiqish istagida bo'lsangiz aynan ushbu testlar to'plami siz uchun foydali hisoblanadi. Abituriyentlarning iltimosiga binoan tayyorlandi.

Test variantlari ko'pligi bois abituriyentlar barcha test variantlarini ishlab chiqishida ko'p vaqt sarflashlariga to'g'ri keladi. Abituriyentlar test variantlarini ishlab chiqishida ko'p vaqt yo'qotishlarini inobatga olib, vaqtdan unumli foydalanishlari uchun barcha testlar mavzulashtirilib, testlar takrorlanishi bartaraf etildi. Bu testlar to'plamini ishlashingizning o'ziga xos afzalliklari shundaki, ishlab chiqishingizga kam vaqt sarflanadi, fizika fanidan imtihonda qanday darajadagi testlar tushganini his qila olasiz, test savollari mavzulashtirilgan, takroriy savollar uchramaydi, barcha savollar bilan tanishib chiqa olasiz.

Abituriyentlar uchun ushbu test savollari to'plami test sinovlarida yuqori natijalar ko'rsatishida yaqindan yordam beradi degan umiddamiz!



<https://t.me/fizikaOnline>

FIZIKA

1. Ikki jism gorizontal yo'nalishda o'zgaras tezlik bilan harakatlanmoqda. Birinchi jismning harakat tenglamasi $x = 14 + 4t$ (m), ikkinchisidiki esa $x = 2 + 6t$ (m) ko'rinishga ega. Qancha vaqtdan so'ng (s) jismlar orasidagi masofa 6 m ga teng bo'ladi?
A) 4 B) 4,9 C) 3,9 D) 8
2. Jism yo'lining yarmini 6 m/s tezlik bilan, qolgan yo'lining 1/3 qismini 2 m/s tezlik bilan, oxirgi qismini esa v tezlik bilan bosib o'tdi. Yo'lining oxirgi qismini bosib o'tish uchun ketgan vaqt, butun harakat vaqtining 1/3 qismini tashkil etadi. Yo'lining oxirgi qismidagi tezlikni toping (m/s).
A) 5,2 B) 4 C) 3 D) 6,2 @fizikaOnline
3. Birinchi moddiy nuqta tezlik tenglamasi $v_{x1} = v_0 - at$. Ikkinchi jismning harakat tenglamasi $x_2 = -vt$. Birinchi jismning ikkinchi jismga nisbatan bog'langan sanoq sistemasida harakati boshidan to to'xagunicha vaqtdagi o'rtacha tezligini toping?
A) $(2v + v_0)/2$ B) $(v + v_0)/2$ C) $v_0/2$ D) $(v + 2v_0)/2$
4. Jism A(-1; -1,5; -3) nuqtadan B(0; 0; 0) nuqtaga 3 s da bordi. Keyin C(1; 1,5; 3) nuqtaga 4 s da bordi. Jismning butun yo'ldagi o'rtacha tezligini toping (m/s).
A) 1,6 B) 2,3 C) 0,6 D) 1
5. Jism koordinatasi A (1;2;1) bo'lgan nuqtadan koordinatasi B (0;0;0) bo'lgan nuqtaga 3 sekund davomida, undan keyin esa C (7;5;3) nuqtaga 4 sekund davomida ko'chdi. Jismning o'rtacha ko'chish tezligi (dm/s) qanday? (koordinatalar sistemasida oraliqlar metrda)
A) 16,5 B) 18,6 C) 13,3 D) 10
6. Jism koordinatasi A (0;-1;-4) bo'lgan nuqtadan koordinatasi B (2;2;2) bo'lgan nuqtaga 2 sekund davomida, undan keyin esa C (4;5;8) nuqtaga 3 sekund davomida ko'chdi. Jismning butun yo'ldagi o'rtacha tezligining o'rtacha ko'chish tezligiga nisbati qanday?
A) 1/3 B) 1 C) 2 D) 1/2
7. Moddiy nuqta $\vec{r} = 2t\vec{i} - (5 + 6t^2)\vec{j}$ qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Moddiy nuqta harakati trayektoriyasining tenglamasini toping.
A) $y = -3 - 6x^2$ B) $y = -5 - 3x^2$
C) $y = -5 - 1,5x^2$ D) $y = 2 - 12x^2$ @fizikaOnline
8. Moddiy nuqta $v = 3,75i - (5 - 5t)j$ (m/s) qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Uning 4 s dan keyingi tezligini toping (m/s).
A) 20 B) 15,5 C) 12,5 D) 35
9. Moddiy nuqta $\vec{r} = 4t\vec{i} + (3 - 7t^2)\vec{j}$ (m) qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Moddiy nuqtaning 0,5 s dan keyingi harakat tezligini toping (m/s).
A) 4 B) 7 C) 8 D) 14
10. Moddiy nuqta $v = 3,75i - (5 - 5t)j$ (m/s) qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Uning 2 s dan keyingi ko'chishini toping (m). A) 0 B) 7,5 C) 15 D) 12,5
11. Moddiy nuqta $v = 3,75i - (5 - 5t)j$ (m/s) qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda. Uning 1 s dan keyingi tezlanishini toping (m/s^2). A) 5 B) 2,5 C) 8,5 D) 6
12. Quyvon janub tomonga $v_1 = 3,9$ m/s tezlik bilan yugurmoqda. Uning tepasida uchayotgan burgutga quyvon sharqqa qarab $v_2 = 5,2$ m/s tezlik bilan harakatlanayotganday ko'rinadi. Burgutning yerga nisbatan tezligi (m/s) qanday?
A) 4,55 B) 9,1 C) 1,3 D) 6,5
13. Quyvon shimol tomonga qarab 4 m/s tezlik bilan yugurmoqda. Quyvonning ustida burgut uchmoqda. Burgutga quyvon 7 m/s tezlik bilan g'arb tomonga qarab yugurayotgandek ko'rinsa, burgutning tezligini toping (m/s).
A) 8 B) 11 C) 3 D) 6
14. Elastik sharcha va massiv devor o'zgaras tezlik bilan bir tomonga mos holda 6 m/s va v tezlik bilan harakatlanmoqda. Sharcha bilan devor o'rtasidagi to'qnashuvdan so'ng sharcha, dastlabki yo'nalishiga qarama-qarshi yo'nalishda 4 m/s tezlik bilan harakatni davom ettirdi. Devorning harakat tezligi v (m/s) nimaga teng? A) 5 B) 1 C) 2,5 D) 2
15. Elastik sharcha va massiv devor o'zgaras tezlik bilan bir tomonga qarab mos holda 5 m/s va v tezlik bilan harakatlanmoqda. Sharcha bilan devor o'rtasidagi absolyut elastik to'qnashuvdan so'ng sharcha, dastlabki yo'nalishda, 1 m/s tezlik bilan harakatni davom etdi. Devorning tezligi v (m/s) nimaga teng?
A) 4 B) 3 C) 2 D) 1
16. Elastik sharcha va massiv devor o'zgaras tezlik bilan bir tomonga qarab mos holda 7 va 5 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Sharcha bilan devor o'rtasidagi absolyut elastik to'qnashuvdan keyin sharcha qanday tezlik (m/s) bilan qaysi tomonga harakatlanadi?
A) 2; dastlabki yo'nalishga qarshi
B) 3; dastlabki yo'nalishda
C) 3; dastlabki yo'nalishga qarshi
D) 2; dastlabki yo'nalishda @fizikaOnline
17. A portdan B portga bir vaqtning o'zida ikkita teploxod jo'nadi. Ularning birinchisi borib kelish uchun 7 sutka, ikkinchisi 5 sutka sarflaydi. Bir vaqtda yo'lga chiqqandan so'ng necha sutkadan keyin ikkala teploxod birinchi bor bir vaqtda B portda bo'ladi? Portlardagi to'xtash vaqtini inobatga olmag.
A) 9,5 B) 12,5 C) 15 D) 17,5
18. A portdan B portga bir vaqtning o'zida ikkita teploxod jo'nadi. Ularning birinchisi borib kelish uchun 3 sutka, ikkinchisi 7 sutka sarflaydi. Bir vaqtda yo'lga chiqqandan so'ng 8 sutka davomida ular necha marta uchrashadi? Portlardagi to'xtash vaqtini inobatga olmag.
A) 4 B) 3 C) 6 D) 5
19. Jismning tezlik vektori bilan tezlanish vektori orasidagi burchak $\alpha = 0^\circ$ ga teng bo'lsa, jismning harakat turi qanday bo'lishini aniqlang.
A) aylana bo'ylab tekis harakat
B) to'g'ri chiziqli sekinlanuvchan harakat
C) to'g'ri chiziqli tezlanuvchan harakat
D) aylana bo'ylab notekis harakat
20. Jismning tezlik vektori bilan tezlanish vektori orasidagi burchak $\alpha = 180^\circ$ ga teng bo'lsa, jismning harakat turi qanday bo'lishini aniqlang.
A) aylana bo'ylab tekis harakat
B) to'g'ri chiziqli sekinlanuvchan harakat
C) to'g'ri chiziqli tezlanuvchan harakat
D) aylana bo'ylab notekis harakat
21. Poyezd tormozlanish yo'lining oxirgi kilometrda tezligini 10 m/s ga pasaytirib to'xtadi. Umumiy tormozlanish yo'li 4 km ga teng bo'lsa, poyezdning boshlang'ich tezligini (m/s) toping. Harakat tekis sekinlanuvchan deb qaralsin.
A) 42 B) 20 C) 25 D) 40

22. Motosiklchi shosse bo'ylab to'g'ri chiziqli harakat qilmoqda. Motosiklchining harakat yo'nalishi OX o'qining yo'nalishi bilan bir xil bo'lib, harakat tenglamasi $x = 10 + 10t + t^2$ (m) ko'rinishida bo'lsa, uning oltinchi sekunddagi o'rtacha tezligi (m/s) qanchaga teng bo'ladi?

A) 20 B) 24 C) 10 D) 21 @fizikaOnline

23. Jism tekis tezlanuvchan harakat qilib dastlabki 3 sekundda 24 m, keyingi 4 sekundda 42 m yo'l o'tdi. Jismning boshlang'ich tezligini toping(m/s)?

A) 8 B) 6 C) 2,5 D) 5

24. Tinch holatdan tekis tezlanuvchan harakatlana boshlagan poyezdning ikkinchi vagoni biror ustun oldidan t_0 vaqtda o'tib ketsa, yettinchi vagoni shu ustun oldidan qancha vaqtda o'tadi?

A) $\frac{\sqrt{6}-\sqrt{5}}{\sqrt{2}} t_0$ B) $\frac{\sqrt{7}-\sqrt{6}}{\sqrt{2}-1} t_0$ C) $\frac{t_0}{\sqrt{2}} t_0$ D) $\frac{t_0}{2}$

25. Boshlang'ich tezligi 5 m/s bo'lgan jism sirpanish ishqalanish kuchi ta'sirida 2 m/s^2 tezlanish bilan harakatlanadi. Uning $t_1 = 0 \div 5 \text{ s}$ va $t_2 = 0 \div 10 \text{ s}$ vaqt oralig'laridagi o'rtacha tezliklar nisbati qanday?

A) 1 B) 5 C) 0 D) 2 @fizikaOnline

26. Gorizontga nisbatan 30° burchak ostida joylashgan qiya tekislik bo'ylab tekis tezlanuvchan harakatni boshlagan jism qiya tekislik oxirida 9 m/s tezlikka erishdi. Jism o'tgan yo'lining boshlang'ich $1/3$ qismidagi o'rtacha tezligini (m/s) toping.

A) 2,2 B) $\frac{3\sqrt{3}}{2}$ C) $6\sqrt{2}$ D) 3


27. Yo'lovchi platformada ikkinchi vagon oldida turibdi. Poyezd qo'zg'alganda yo'lovchi ushbu vagonning 8 sekundda o'tganini qayd qildi. Yo'lovchi yonidan poyezdning o'ninchi vagoni qancha vaqtda (s) o'tadi? Harakat tekis tezlanuvchan deb qaralinsin. $\sqrt{8} = 2,82$

A) 2,1 B) 0,86 C) 1,82 D) 1,44

28. Jismning tezlik vektori bilan tezlanish vektori orasidagi burchak $\alpha = \pi/7$ ga teng bo'lsa, jismning harakat turi qanday bo'lishini aniqlang.


A) to'g'ri chiziqli tekis harakat.
B) to'g'ri chiziqli tezlanuvchan harakat
C) aylana bo'ylab notekis harakat
D) aylana bo'ylab tekis harakat

29. To'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanayotgan yengil avtomobil (I-grafik) va avtobusning (II-grafik) harakat grafiklari bo'yicha avtomobilning avtobusga bog'langan sanoq sistemasiga nisbatan tezligini (km/h) aniqlang. Jismlar faqat OX o'qida harakatlanmoqda deb hisoblang.




A) 200 B) -25 C) -200 D) 50 @fizikaOnline

30. To'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanayotgan yengil avtomobil (I-grafik) va avtobusning (II-grafik) harakat grafiklari bo'yicha avtomobilning avtobusga bog'langan sanoq sistemasiga nisbatan tezligini (km/h) aniqlang. Jismlar faqat OX o'qida harakatlanmoqda deb hisoblang.




A) 50 B) 100 C) 150 D) -50

31. To'g'ri yo'l bo'ylab harakatlanayotgan yengil avtomobil (I-grafik) va avtobusning (II-grafik) harakat grafiklari bo'yicha avtomobilning avtobusga bog'langan sanoq sistemasiga nisbatan tezligini (km/h) aniqlang. Jismlar faqat OX o'qida harakatlanmoqda deb hisoblang.



A) -200 B) -75 C) 200 D) 75

32. OX o'qi bo'ylab harakatlanayotgan ikki jism tezligining vaqtga bog'lanish grafiklari rasmda keltirilgan. Birinchi jismning boshlang'ich koordinatasi $x_{01} = -4 \text{ m}$, ikkinchisidiki esa $x_{02} = 8 \text{ m}$. Kuzatish boshlanganidan so'ng 4 s o'tgach jismlar orasidagi masofa (m) qancha bo'ladi?



A) 20 B) 18 C) 6 D) 24


33. Jismning tezlik vektori bilan tezlanish vektori orasidagi burchak $\alpha = \pi/2$ ga teng bo'lsa, jismning harakat turi qanday bo'lishini aniqlang.

A) to'g'ri chiziqli tekis harakat.
B) to'g'ri chiziqli tezlanuvchan harakat
C) aylana bo'ylab sekinlanuvchan harakat
D) aylana bo'ylab tekis harakat

34. Jismning tezlik vektori bilan tezlanish vektori orasidagi burchak $\alpha = \pi/12$ ga teng bo'lsa, jismning harakat turi qanday bo'lishini aniqlang.


A) egri chiziqli notekis harakat
B) aylana bo'ylab notekis harakat
C) aylana bo'ylab tekis harakat
D) A va B javoblar to'g'ri

35. Gorizont sirt bo'ylab radiusi 1 m bo'lgan g'ildirak sirpanishsiz g'ildiramoqda. Gildirak gardishidagi A nuqtaning yerga nisbatan tezligi 4 m/s bo'lsa, B nuqtaning yerga nisbatan tezligini (m/s) toping.



A) 2 B) 2,8 C) 4 D) 1,4

36. Gorizont sirt bo'ylab radiusi 1 m bo'lgan g'ildirak sirpanishsiz g'ildiramoqda. Gildirak gardishidagi A nuqtaning yerga nisbatan tezligi 5 m/s bo'lsa, C nuqtaning yerga nisbatan tezligini (m/s) toping.



A) 3,5 B) 2,8 C) 0 D) 0,7


37. Gorizont sirt bo'ylab radiusi 1 m bo'lgan g'ildirak sirpanishsiz g'ildiramoqda. Gildirak gardishidagi A nuqtaning yerga nisbatan tezligi 2 m/s bo'lsa, B nuqtaning yerga nisbatan tezlanishini (m/s^2) toping.

A) 0,5 B) 2 C) 1 D) 4

38. Gorizont sirt bo'ylab radiusi 0,5 m bo'lgan g'ildirak sirpanishsiz g'ildiramoqda. Gildirak gardishidagi A nuqtaning yerga nisbatan tezligi 1 m/s bo'lsa, D nuqtaning yerga nisbatan tezlanishini (m/s^2) toping.

A) 2 B) 1 C) 0,25 D) 0,5


39. Radiusi $R=1$ m bo'lgan disk yerdan sirpanmasdan tekis g'ildiramoqda va bunda B nuqtaning yerga nisbatan tezligi $2,8$ m/s ga teng. C nuqtaning yerga nisbatan tezlanishi (m/s^2) qanday?



@fizikaOnline

A) 16 B) 8 C) 4 D) 0

40. Gorizontal sirt bo'ylab diametri 1 m bo'lgan g'ildirak sirpanib g'ildiramoqda. Qandaydir vaqtda g'ildirak gardishidagi A nuqtasining yerga nisbatan tezligi 3 m/s, C nuqtasining tezligi -2 m/s bo'lsa, B nuqtaning yerga nisbatan tezlanishini (m/s^2) toping.



A) 2 B) 1,8 C) 9 D) 12,5

41. Diametri 100 sm bo'lgan g'ildirak gardishidagi A nuqta 5 m/s tezlik bilan tekis aylanma harakat qilayotgan edi. Tormozlanish natijasida A nuqta 2 m/s² tangensial tezlanish bilan harakat qila boshladi. Tormozlanish boshlanganidan 2 s o'tgach A nuqtaning tezlik vektori bilan to'la tezlanish vektori orasidagi burchak necha gradusga teng bo'ladi?

A) 90° B) 135° C) 120° D) 60°

42. Suvning harorati 4°C dan 0°C gacha sovutilish jarayonida uning hajmi(1) va zichligi(2) qanday o'zgaradi?

A) 1-kamayadi; 2-kamayadi
B) 1-ortadi; 2-kamayadi
C) 1-ortadi; 2-ortadi
D) 1-kamayadi; 2-ortadi

43. Suvni qizdirish jarayonida uning tubidagi metall sharchaga ta'sir qilayotgan Arximed kuchi dastlab ortdi, so'ng kamaydi. Suv qanday harorat oralig'ida qizdirilgan bo'lishi mumkin? Sharcha hajmining o'zgarishi inobatga olinmasin.

A) 1°C dan 4°C gacha B) 4°C dan 20°C gacha
C) 2°C dan 20°C gacha D) 10°C dan 100°C gacha

44. Hajmi 1 m³ bo'lgan shar suvda suzib yuribdi. Sharning qancha qismi suv ichida bo'ladi? Arximed kuchi 5 kN ga teng. A) 0,25 B) 0,5 C) 0,32 D) 0,75

45. Hajmi 2 m³ bo'lgan shar suvda suzib yuribdi. Sharning qancha qismi suv sirtida bo'ladi? Arximed kuchi 5 kN ga teng. A) 0,25 B) 0,75 C) 0,32 D) 0,8

46. Sharcha birinchi gal suvga, ikkinchi gal moyga, uchinchi galda esa aralashmaga tushirildi. Qaysi holda sharchaga eng katta Arximed kuchi ta'sir qiladi? Suv zichligi 1000 kg/m³, moy zichligi 900 kg/m³, aralashma zichligi 560 kg/m³, shar zichligi 560 kg/m³.

A) 1 B) 2 C) barcha holda bir xil D) 3

47. Massasi 100 kg bo'lgan odamni suvda ko'tarib turish uchun qalinligi 25 sm bo'lgan muz bo'lagining yuzasi (m^2) qanday bo'lishi kerak?

A) 7,5 B) 30 C) 10 D) 4

@fizikaOnline

48. Asosining yuzi 500 sm² bo'lgan po'kak zichligi 900 kg/m³ bo'lgan moyda qisman botgan holda joylashgan. Po'kak moyga yana 10 sm ga botishi uchun uning ustiga necha gramm yuk qo'yish kerak? Po'kakning zichligi $0,2$ g/sm³

A) 4500 B) 2800 C) 4000 D) 3600

49. Yuzasi $0,5$ sm² bo'lgan shpris porsheniga 40 N kuch bilan bosim berilsa, shpris teshigidan suv qanday tezlik (m/s) bilan oqib chiqadi?

A) 20 B) 10 C) 40 D) 15

50. Sirtining yuzi 216 dm² bo'lgan kub shaklidagi jism suvga to'la botib turgan bo'lsa, u necha litr suvni siqib chiqargan? Suvning zichligi 1000 kg/m³.

A) 21,6 B) 216 C) 36 D) 3,6

51. Massasi 65% mis va 35% ruxdan iborat qotishmaning zichligini (g/sm^3) aniqlang. $\rho_{mis}=8,9$ g/sm³, $\rho_{rux}=7,1$ g/sm³

A) 7,8 B) 8,3 C) 8,9 D) 7,5


52. Ko'lning biror h chuqurligidagi bosim $0,7$ MPa ga teng bo'lsa, undan 10 m chuqurroqdagi gidrostatik bosim necha kPa ga teng bo'ladi? $P_0 = 100$ kPa, $g = 10$ m/s²

A) 600 B) 800 C) 700 D) 900

53. Silindrsimon idishga teng massadagi simob va suv solinganda suyuqliklarning umumiy balandligi $29,2$ sm ni tashkil qilsa, idish tubiga berilayotgan bosimni (Pa) aniqlang.

$\rho_{suv}=1$ g/sm³, $\rho_{simob}=13,6$ g/sm³
A) $3,1 \cdot 10^4$ B) $5,4 \cdot 10^3$ C) $3,5 \cdot 10^5$ D) $4,2 \cdot 10^5$

54. h_1 balandlikdagi moy, $h_2=30$ sm li kerosin hamda $h_3=15$ sm li simob ustunlari rasmda ko'rsatilgandek tutash idishga solingan. C nuqtadagi gidrostatik bosim (kPa) qanday? Kerosin zichligi $=800$ kg/m³, moy zichligi $=950$ kg/m³, simob zichligi $=13600$ kg/m³.



@fizikaOnline

A) 29,3 B) 22,8 C) 20 D) 25,2

55. Simob bilan to'ldirilgan qirralarining uzunligi a bo'lgan kub shakidagi idish og'irlik kuchi maydonida erkin tushmoqda. Kub markazida muz sharcha $L = a/2$ uzunlikdagi ip bilan idish tubiga bog'lab qo'yilgan. Kub vertikal pastga yo'nalgan qo'shimcha F kuch bilan tortila boshlangandan keyin ip uzilsa, sharcha kub ichida qaysi tomonga harakatlanib boshlaydi? Qarshilik kuchlari inobatga olinmasin.

A) vertikal yuqoriga B) vertikal pastga
C) sharcha kub markazida qo'zg'almas qoladi
D) gorizontal chapga

56. Suv bilan to'ldirilgan, qirralarining uzunligi a bo'lgan kub shakidagi idish og'irlik kuchi maydonida erkin tushmoqda. Kub markazida massasi 100 g bo'lgan yog'och ($\rho=800$ kg/m³) sharcha $L = a/2$ uzunlikdagi ip bilan idish tubiga bog'lab qo'yilgan. Sistemaning umumiy massasi m ga teng. Kub vertikal pastga yo'nalgan qo'shimcha $F = mg$ kuch bilan tortila boshlangandan so'ng ipning taranglik kuchi (N) nimaga teng bo'lib qoladi? Qarshilik kuchlari inobatga olinmasin.

A) 0,75 B) 0 C) 0,5 D) 0,25

57. Gidravlik pressning kichik porsheniga yelkalarining nisbati $5:1$ bo'lgan richag vositasida ta'sir etiladi. Richagning katta yelkasiga 100 N kuch ta'sir etganida kichik porshen 10 sm siljigan, katta porshen $0,5$ sm ko'tarilgan. Bunda katta porshenda qanday kuch (kN) hosil qilinadi? Ishqalanish hisobga olinmasin.

A) 200 B) 10 C) 2000 D) 500

58. Kichik porshenining yuzasi 100 sm^2 , kattasini 2000 sm^2 bo'lgan gidravlik press 20 kN og'irlikdagi avtomashinani ko'tarmoqda. Kichik porshen har bir siljishda 25 sm ga pasayadi va bir minutda 90 marta yuradi. Press dvigatelining FIKi 75% bo'lsa, uning quvvatini (W) toping.
A) 600 B) 850 C) 500 D) 1250
59. Vertikal yuqoriga 40 m/s tezlik bilan otilgan jismning dastlabki 7 sek ichida yurgan yo'li necha metr ga teng bo'ladi(m)?
A) 125 B) 80 C) 65 D) 40
60. Uy tomidan tomchi $0,1 \text{ s}$ vaqt oralatib tommoqda. 9-tomchi tomganda, 2- va 4- tomchilar orasidagi masofa necha metr bo'ladi? A) 2,1 B) 1,2 C) 0,8 D) 2,8
61. Uy tomidan tomchi $0,1 \text{ s}$ vaqt oralatib tommoqda. 10-tomchi tomganda, 3- va 7- tomchilar orasidagi masofa necha metr bo'ladi? A) 2,4 B) 1 C) 1,6 D) 2
62. Ikkita sharcha biror balandlikdan erkin tushmoqda. Ikkinchi sharcha yo'lining yarmida yupqa shishaga urildi va tezligini 20% ga yo'qotdi. Sharchalarning yerga urilishdagi tezliklari nisbatini toping.
A) 1,2 B) $\sqrt{10}/3$ C) $\sqrt{50/41}$ D) $\sqrt{23/19}$
63. Ikkita sharcha biror balandlikdan erkin tushmoqda. Ikkinchi sharcha yo'lining yarmida yupqa shishaga urildi va tezligini 50% ga yo'qotdi. Sharchalarning yerga urilishdagi tezliklari nisbatini toping.
A) 1,26 B) $\sqrt{10}/3$ C) $\sqrt{50/41}$ D) 1,12
64. Biror nuqtadan bir jism 5 m/s tezlik bilan gorizontaal otildi, ikkinchisi erkin tusha boshladi. Bu jismlar orasidagi masofa 8 s dan keyin nimaga teng bo'ladi (m)?
A) 50 B) 40 C) 80 D) 100
65. Vertikal yuqoriga otilgan jism $6 \text{ sekunddan so'ng}$ yerdan 300 m balandlikda bo'lgan bo'lsa, shu jism otilganidan 12 sekunddan o'tgach yerdan qanday balandlikda bo'lgan(m)?
A) 240 B) 600 C) 348 D) 286
66. Ancha baland nuqtadan gorizontaal yo'nalishda 15 m/s tezlik bilan otilgan jismning to'rt sekund ichidagi ko'chishini toping(m).
A) 25 B) 100 C) 15 D) 20
67. Yettinchi qavat balkonidan po'lat sharcha 40 m/s tezlik bilan vertikal yuqoriga otiladi. Oradan 1 s o'tgach ikkinchi po'lat sharcha ham xuddi shunday tezlik bilan vertikal yuqoriga otiladi. Birinchi sharcha otilganidan so'ng qancha vaqt (s) o'tgach sharchalar orasidagi masofa 25 m ga teng bo'ladi? Havoning qarshiligi e'tiborga olinmasin. $g = 10 \text{ m/s}^2$.
A) 2; 7 B) 6 C) 3 D) 3; 6
68. Po'lat sharcha vertikal yuqoriga 45 m/s tezlik bilan otiladi. Oradan $2,8 \text{ s}$ o'tgach shu nuqtadan ikkinchi po'lat sharcha ham xuddi shunday tezlik bilan vertikal yuqoriga otiladi. Birinchi sharcha ikkinchi sharcha bilan uchrashish nuqtasidan yuqorida qanday o'rtacha tezlikka (m/s) ega bo'lgan? Havoning qarshiligini e'tiborga olmag.
 $g = 10 \text{ m/s}^2$.
A) 6,5 B) 20 C) 13 D) 7
69. Qiyalik burchagi 45° ga bo'lgan tog'dan gorizontaal ravishda tosh otildi. Agar tosh otilgan nuqtadan 350 m masofaga tushsa, u qanday tezlik (m/s) bilan otilganligini aniqlang.
 $g = 10 \text{ m/s}^2$
A) 52 B) 35 C) 21 D) 47

70. Qiyalik burchagi $\alpha = 60^\circ$ bo'lgan qiya tekislik ustiga K jism qo'yilgan. K jism pastga vertikal holda erkin tushishi uchun qiya tekislikka gorizontaal yo'nalishda qanday tezlanish (m/s^2) berish kerak?




@fizikaOnline

- A) 5 B) 5,8 C) 2,9 D) 17,3


71. Qandaydir balandlikdan tosh gorizontaal 12 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan. Harakat boshlangandan $0,5 \text{ s}$ vaqt o'tgandagi normal tezlanishni toping. $g = 10 \text{ m/s}^2$
A) 120/13 B) 8 C) 20/13 D) 50/13
72. Qandaydir balandlikdan tosh gorizontaal 5 m/s boshlang'ich tezlik bilan otilgan. Harakat boshlangandan $1,2 \text{ s}$ vaqt o'tgandagi tangensial tezlanishni toping. $g = 10 \text{ m/s}^2$
A) 50/13 B) 20/13 C) 120/13 D) 10
73. Jar yoqasida turgan bola toshni 5 m/s tezlik bilan gorizontaal yo'nalishda otdi. Koordinata boshini toshning otilish nuqtasiga, abssissa oqini toshning gorizontaal harakati yo'nalishiga, ordinata o'qini esa vertikal pastga tomon yo'nalishga moslab, toshning harakat trayektoriyasi tenglamasini toping. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin. $g = 10 \text{ m/s}^2$
A) $y = 5 + 0,5x^2$ B) $y = 0,2x^2$ C) $y = 10x^2$
D) $y = 2x^2 - 1$
74. Moddiy nuqtaga gorizontaal $F_1 = 4 \text{ N}$ kuch va vertikal bo'yicha yo'nalishlari mos keluvchi $F_2 = 2 \text{ N}$ va $F_3 = 1 \text{ N}$ kuchlar ta'sir etmoqda. Teng ta'sir etuvchi kuch (N) topilsin.
A) 8 B) 2 C) 7 D) 5
75. Massasi $0,1 \text{ kg}$ bo'lgan jismga 4 N kuch rasmdagi kabi quyilgan. Agar kuch yo'nalishi gorizont bilan $\alpha = 30^\circ$ tashkil qilsa, jism shiftga qanday kuch bilan ta'sir etmoqda(N)?

@fizikaOnline



- A) 4 B) 1 C) 6 D) 3


76. Rasmda 3 kg massali jism tezligining o'zgarishi grafigi berilgan. Jismga ta'sir etayotgan kuchning $F(x)$ proyeksiyasini (N) toping.



- A) 10 B) 5 C) 6 D) 4

77. Sistema n ta o'zaro ketma-ket bog'langan brusoklardan iborat. Sistema birinchi brusokka qo'yilgan $F = 18 \text{ N}$ kuch ta'sirida doimiy tezlanish bilan harakat qilmoqda va bunda to'rtinchi hamda beshinchi brusoklar orasidagi taranglik kuchi 8- va 9-brusoklar orasidagi taranglik kuchidan 8 N ga ortiq. $n + 1$ ni toping.
A) 10 B) 11 C) 9 D) 8

78. Beshta bir xil m massali yuk og'irlik kuchi maydonida qo'shimcha $F = 7mg$ kuch bilan tortilmoqda. 3-yukning tezlanishi nimaga teng?



@fizikaOnline

- A) $3g/5$ B) $12g/5$ C) $4g/5$ D) $2g/5$

79. Vaznsizlikda quyidagi qonuniyatlardan qaysi bir(lar)i bajariladi?
1) Paskal qonuni, 2) Arximed qonuni, 3) Amper qonuni.
A) 1, 3 B) 1, 2 C) 1, 2, 3 D) 2

80. Qaysi javobda markazga intilma kuch bo'la oladigan kuchlar to'liq ko'rsatilgan?
1) taranglik kuchi; 2) elastiklik kuchi; 3) tinchlikdagi ishqalanish kuchi; 4) gravitatsion kuchlar.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2 C) 1, 3, 4 D) 3, 4

81. Qaysi kuchlar markazga intilma kuch bo'la oladi? 1. Tinchlikdagi ishqalanish kuchi, 2. Elastiklik kuchi, 3. Lorens kuchi, 4. Gravitatsiya kuchi, 5. Amper kuchi
A) 2,3 B) 1,2,3,4 C) 1,2,3,4,5 D) 3,4

82. m massali jism gorizontga nisbatan α burchak ostida v tezlik bilan otildi. Trayektoriyaning eng yuqori nuqtasida jism vazni nimaga teng(N)? g -erkin tushish tezlanishi.
A) $mg \sin \alpha$ B) $mg \cos \alpha$ C) 0 D) mg

83. Angren ko'mir konidagi og'ma lift bo'lib, lift gorizont bilan 30° burchak tashkil qilib 10 m/s^2 tezlanish bilan tezlanuvchan harakat qilib ko'tarilmoqda. Bu lift ichidagi 2 kg massali jism liftni qanday kuch bilan bosadi (N)?
A) $4\sqrt{15}$ B) 28 C) $20\sqrt{3}$ D) 40

84. Angren ko'mir konidagi og'ma lift bo'lib, lift gorizont bilan 30° burchak tashkil qilib 10 m/s^2 tezlanish bilan sekinlanuvchan harakat qilib ko'tarilmoqda. Bu lift ichidagi 4 kg massali jism liftni qanday kuch bilan bosadi(N)?
A) 40 B) $4\sqrt{15}$ C) 28 D) 50

85. Angren ko'mir konidagi og'ma lift bo'lib, lift gorizont bilan 30° burchak tashkil qilib 10 m/s^2 tezlanish bilan harakat qilib pastga tushmoqda. Bu lift ichidagi 2 kg massali jism liftni qanday kuch bilan bosadi (N)?
A) $4\sqrt{15}$ B) 20 C) 28 D) 20

86. Angren ko'mir konidagi og'ma lift bo'lib, lift gorizont bilan 60° burchak tashkil qilib 10 m/s^2 tezlanish bilan sekinlanuvchan harakat qilib pastga tushmoqda. Bu lift ichidagi 4 kg massali jism liftni qanday kuch bilan bosadi(N)?
A) $4\sqrt{15}$ B) $4\sqrt{373}$ C) 28 D) 30


87. Dinamometrda osilgan blok orqali ip o'tkazilgan bo'lib, uning uchlariga og'irliklari 3 N va 1 N bo'lgan yuklar osilgan. Yuklar harakatlanganda dinamometr ko'rsatishini (N) aniqlang. Blok va ipning og'irligini hisobga olmang.
A) 2 B) 1,5 C) 4 D) 3

88. Agar diametri 2 sm bo'lgan mis sharchaga $0,183 \text{ N}$ muvozanatga qaytaruvchi kuch ta'sir etayotgan bo'lsa, u qanday burchakka og'dirilgan? $g=9,8 \text{ m/s}^2$ $\rho=8900 \text{ kg/m}^3$
A) 45° B) 60° C) 30° D) 90°

@fizikaOnline


89. Shiftga vertikal biriktirilgan va dastlab cho'zilmagan prujinaga 1,5 kg massali yuk osib qo'yib yuborildi. Prujinaning deformatsiya kattaligi nolga teng bo'lganda yukning tezlanishi (m/s^2) nimaga teng bo'ladi? Prujinaning bikrligi 150 N/m.
A) 20 B) 10 C) 0 D) 30

90. Rasmdagi prujinalar sistemasining bikrligi (N/m) topilsin. Ayrim holda prujinalar bikrligi 300 N/m ga teng.



- A) 150 B) 200 C) 300 D) 400

91. Quyidagi chizmada keltirilgan prujinalar tizimining umumiy bikrligi nimaga teng? Har bir prujinaning bikrligi k dan iborat deb oling.




@fizikaOnline

- A) $(n + m)^2 \cdot k$
B) $\frac{m}{n} k$
C) $\left(\frac{n}{m + 1}\right)^{2(n+m)} \cdot k$
D) $k \frac{2n}{m}$

92. Agar jismni harakatlantiruvchi kuch ishqalanish kuchidan kichik bo'lsa, jism qanday harakatlanadi?
A) tekis B) tezlanuvchan C) aylanma D) sekinlanuvchan

93. Rasmda ishqalanish kuchi va tik bosim kuchi orasidagi bog'lanish nuqtalari berilgan. Qaysi nuqta ishqalanish koeffitsiyentining eng kichik qiymatiga mos keladi?




- A) 2 B) 1 C) 4 D) 3

94. Agar avtomobil 21 m/s tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa, shinalar va yo'l orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,4 ga teng deb olib, svetoforming qizil chirog'i yonib turganda chorrahadan qanday minimal masofada (m) haydovchi tormoz bera boshlashi kerak? $g=10 \text{ m/s}^2$
A) 55 B) 60 C) 45 D) 50

95. Jismning qiya tekislik bo'ylab gorizontal ravishda yo'nalgan boshlang'ich tezligi v . Uning harakat boshidagi tezlanishi (m/s^2) nimaga teng? Qiyalik burchagi $\cos \alpha = 0,8$, $\operatorname{tg} \alpha = \mu$.
A) $5\sqrt{3}$ B) 12 C) 0 D) $6\sqrt{2}$
96. Gorizontal tekislikda turgan 2 kg massali brusokka sirtga parallel ravishda 3 N kuch ta'sir etmoqda. Ishqalanish koeffitsiyenti 0,5. Brusokka ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchi bilan asosning to'liq ta'sir kuchi orasidagi burchak kotangensi nimaga teng?
A) 0 B) 0,31 C) 0,15 D) 0,5
97. Qiyaligi burchagi $\alpha = \pi/3$ bo'lgan qiya tekislikda turgan 2 kg massali brusokka ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchi bilan asosning to'liq ta'sir kuchi orasidagi burchak kotangensi nimaga teng? $\mu = 2 \operatorname{tg} \alpha$
A) 1,7 B) 0 C) 0,87 D) 0,58
98. Qiyaligi burchagi $\alpha = \pi/6$ bo'lgan qiya tekislikda turgan 2 kg massali brusokka ta'sir qiluvchi ishqalanish kuchi bilan asosning to'liq ta'sir kuchi orasidagi burchak kotangensi nimaga teng? $\mu = 3 \operatorname{tg} \alpha$
A) 1,7 B) 0,58 C) 0,87 D) 0
99. Po'lat sharcha vertikal yuqoriga 45 m/s tezlik bilan otildi. Oradan 3 s o'tgach shu nuqtadan ikkinchi po'lat sharcha ham xuddi shunday tezlik bilan vertikal yuqoriga otildi. Birinchi sharcha ikkinchi sharcha bilan uchrashish nuqtasidan yuqorida qanday o'rtacha tezlikka (m/s) ega bo'lgan? Havoning qarshiligini e'tiborga olmag. $g = 10 m/s^2$.
A) 13 B) 4,5 C) 7,5 D) 6,5
100. Ikki kishi og'irligi 600 N va uzunligi 6 m bo'lgan bir jisnli taxtani ko'tarib ketmoqda. Taxtaning uchlari birinchi ishchining yelkasidan 1 m, ikkinchi ishchining yelkasidan 2 m chiqib turibdi. Taxta har bir ishchi yelkasiga qanday kuch (N) bilan bosmoqda?
A) 400; 200 B) 200; 400 C) 300; 300 D) 250; 350
101. Gorizontal silliq sirtida massasi 12 kg bo'lgan taxta va uning ustida massasi 3 kg bo'lgan kichkina brusok turibdi. Brusok va taxta orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti 0,3 ga teng. Taxtaga qanday maksimal kuch (N) berilganda taxta ustidagi brusok sirpanib ketmaydi?
A) 15 B) 60 C) 30 D) 45
102. Massasi juda ham kichik bo'lgan qo'zg'almas blok orqali arqon o'tkazilgan. Arqonning bir uchiga massasi 16 kg bo'lgan yuk osilgan, arqonning ikkinchi uchiga maymun osilib olib, yuqoriga intilmoqda. Agar yuk doim birday balandlikda turgan bo'lsa, maymun qanday tezlanish (m/s^2) bilan ko'tarilmoqda? Maymunning massasi 14 kg.
A) 0,8 B) 1 C) 0,4 D) 1,4
103. Muvozanat holatda turmagan richagda jism massasi aniqlandi. Bunda yuk richagning birinchi tomoniga qo'yilganda 160 N kuchni, ikkinchi tomoniga qo'yilganda 250 N kuchni ko'rsatdi. Jism massasi (kg) qanday bo'lgan?
A) 16 B) 25 C) 41 D) 20
104. Uzunligi l bo'lgan silindrsimon sterjenning yarmi ρ , yarmi esa $\frac{1}{3}\rho$ zichlikka ega metallardan tayyorlangan bo'lsa, uning og'irlik markazi sterjen markazidan qancha siljigan?
A) $\frac{l}{8}$ B) $\frac{3}{4}l$ C) $\frac{l}{16}$ D) $\frac{l}{10}$


105. Tomoni 27 sm ga teng kvadrat shaklidagi plastinkadan chizmada ko'rsatilgandek uchburchak kesib olindi. Uchburchak uchi kvadrat markazida yotadi. Qolgan plastinkaning massa markazi kvadrat markazidan qanday masofaga (sm) siljidi?



@fizikaOnline


- A) 9 B) 4,5 C) 12 D) 3

106. Rasmda keltirilgan shaklda bukilgan bir jisnli sterjenning og'irlik markazi qaysi nuqtada yotadi?




- A) M B) L C) N D) K

107. Rasmda keltirilgan shaklda bukilgan bir jisnli sterjenning og'irlik markazi qaysi nuqtada yotadi?




- A) N B) L C) M D) K

108. Rasmda keltirilgan shaklda bukilgan bir jisnli sterjenning og'irlik markazi qaysi nuqtada yotadi?



- A) K B) L C) N D) M

109. Rasmda keltirilgan shaklda bukilgan bir jisnli sterjenning og'irlik markazi qaysi nuqtada yotadi?




- A) K B) M C) N D) L

110. O'rtasida tayanchi bo'lgan 6 m li taxta uchlari og'irliklari 400 N va 300 N bo'lgan ikkita bola o'tiribdi. Taxta muvozanatda qolishi uchun og'irligi 250 N bo'lgan bola taxtaning o'rtasidan qanday masofada (m) o'tirishi kerak?
A) 1,2 B) 1,8 C) 2 D) 2,2

111. Massasi 100 kg, uzunligi 3 m bo'lgan aravachaning ikki uchida 50 kg va 60 kg massali bolalar turibdi. Birinchi bola aravachaning o'rtasigacha kelganda sistemaning massa markazi qanchaga o'zgaradi (m)?
A) 1 B) 0,5 C) o'zgaraydi D) 0,25

@fizikaOnline

112. Bir jinsli, ishqalanishsiz harakatlanadigan, uzunligi 2 m va massasi 100 kg bo'lgan aravachaning ikki chetida massalari mos holda 60 kg va 80 kg bo'lgan ikkita bola turibdi. Ikkinchi bola aravachaning to'rtidan birini bosib o'tganda sistemaning og'irlik markazi qanchaga (m) siljiydi?
A) 0 B) 0,25 C) 0,17 D) 0,33
113. Bir jinsli, ishqalanishsiz harakatlanadigan, uzunligi 3 m va massasi 100 kg bo'lgan aravachaning ikki chetida massalari mos holda 60 kg va 90 kg bo'lgan ikkita bola turibdi. Birinchi bola aravacha bo'ylab yurib, uning o'rtasigacha 1,2 m masofa qolganda to'xtadi. Aravacha oldingi vaziyatiga qaytishi uchun ikkinchi bola, aravacha bo'ylab qanday masofani (m) o'tishi kerak?
A) 2,7 B) 1,7 C) 0,2 D) 1,3
114. Quyidagi rasmda soat strelkasiga qarshi yo'nalishda aylanayotgan 2M massali doiraviy platforma ustida turgan M massali bolaning tepadan ko'rinishi tasvirlangan. Agar bola platforma markaziga tomon harakatlansa, platforma hamda bola bog'langan tizimning burchak tezligi va inersiya momenti qanday o'zgaradi?



@fizikaOnline

- A) burchak tezlik o'zgarmaydi, inersiya momenti esa kamayadi
B) burchak tezlik kamayib, inersiya momenti ortadi
C) burchak tezlik ortib, inersiya momenti kamayadi
D) burchak tezlik ham inersiya momenti ham o'zgarmaydi
115. Bir-biriga arqon bilan bog'langan K va L aravachalar rels yo'lda bir-birining ketida turibdi. K aravachaning massasi 3m, L aravachaning massasi 2m. L aravacha ustida massasi m ga teng bo'lgan odam turibdi. Odam K aravacha yo'nalishida v tezlik bilan L aravachaga nisbatan yurganda aravachalar qanday tezlik bilan harakatlana boshlaydi? Relslardagi ishqalanish inobatga olmasin.
A) v/6 B) v/4 C) v/3 D) v/5
116. Gorizontaldagi bilyard shari tinch turgan xuddi shunday shar bilan elastik to'qnashib, 13° burchak ostida sochildi. Ikkinchi shar qanday β burchak ostida sochiladi?
A) 81° B) 67° C) 77° D) 71°
-
117. Gorizontaldagi P impulsli bilyard shari tinch turgan xuddi shunday shar bilan elastik to'qnashgandan keyin impuls P₁ bo'lib qoldi. Ikkinchi sharning impuls qanday bo'lib qoldi?
A) P - P₁ B) (P² - P₁²)^{1/2} C) √(P² + P₁²) D) P + P₁
118. Gorizontaldagi harakatlanayotgan sliar tinch turgan xuddi shunday shar bilan elastik to'qnashuvi natijasida impuls 30% kamayadi. Ikkinchi sharning impuls boshlang'ich impulsning necha foizini tashkil etadi?
A) 30 B) 71 C) 86 D) 52

@fizikaOnline

119. Gorizontaldagi 60 $\frac{kg \cdot m}{s}$ impulsli bilyard shari tinch turgan xuddi shunday shar bilan elastik to'qnashgandan keyin impuls 48 $\frac{kg \cdot m}{s}$ bo'lib qoldi. Ikkinchi sharning impuls ($\frac{kg \cdot m}{s}$) qanday bo'lib qoldi?
A) 36 B) 48 C) 12 D) 40
120. Gorizontaldagi shar 2 $\frac{kg \cdot m}{s}$ impuls va 2 J kinetik energiyaga ega. Bu shar tinch turgan xuddi shunday shar bilan elastik to'qnashib, unga 1,6 $\frac{kg \cdot m}{s}$ impuls berdi. Birinchi sharning kinetik energiyasi (J) qanday bo'lib qoldi?
A) 1,16 B) 1,28 C) 0,88 D) 0,72
121. Massasi 0,6 kg bo'lgan jism $x = 3\sin\pi t$ va $y = 4\cos\pi t$ qonun bo'yicha harakatlanmoqda. Vaqtning $t = T/2$ momentida jism impulsini toping ($kg \cdot m/s$)? (T-tebranish davri)
A) $\pi/6$ B) $\pi/2$ C) $1,8\pi$ D) $2\pi/5$
122. 1000 kg massali bolg'a 1,8 m balandlikdan sandonga urildi. Urilish vaqti 0,1 s ga teng. Bolg'aning sandonga beradigan maksimal kuchini (kN) toping.
A) 180 B) 100 C) 50 D) 70
123. 3 m/s tezlik bilan to'g'ri chiziqli tekis harakat qilayotgan 8 kg massali aravaga unung harakat yo'nalishi bo'ylab o'zgaruvchan kuch ta'sir etib boshladi. Rasmda tashqi kuchni vaqt bo'yicha o'zgarish grafigi ko'rsatilgan. Aravaning oxirgi tekis harakat tezligini (m/s) toping.
-
- @fizikaOnline
- A) 4 B) 8 C) 2 D) 6
124. Massasi 200 g bo'lgan sharcha 1,28 m balandlikdan erkin tushib, qiyalik buchagi $\pi/12$ bo'lgan qiya teskislikka absolyut noelastik urilmoqda. Sharchaning qiya tekislik bilan ta'sirlashuv vaqti 0,01 s. O'rtacha urilish kuchi (N) nimaga teng?
A) 100 B) 98,6 C) 96,6 D) 70,7
125. Biror balandlikdan erkin tushayotgan jism 1,25 m tushganda qiyaligi $\alpha = \pi/6$ bo'lgan qiya tekislik bilan noelastik to'qnashdi. To'qnashuv 0,1 s davom etgan bo'lsa, jismga ta'sir etuvchi kuchni toping (N). Jism massasi 2 kg.
A) 64 B) 100 C) 32 D) 125
126. m massali bola qirg'oqdan v_0 tezlik bilan suvda tinch turgan qayiq ustiga sakradi. Agar suvning qayiq harakatiga qarshiligi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti k ga teng bo'lsa, qayiq to'xtaguncha qancha masofani bosib o'tadi? Qayiq massasi M ga teng.
A) $\frac{m\theta_0}{k}$ B) $\frac{(m+M)\theta_0}{k}$ C) $\frac{(m+M)\theta_0}{2k}$ D) $\frac{(m+M)\theta_0}{4k}$
127. 60 kg massali bola qirg'oqdan 3 m/s tezlik bilan suvda tinch turgan qayiq ustiga sakradi. Agar suvning qayiq harakatiga qarshiligi tezlikka proporsional bo'lib, proporsionallik koeffitsiyenti 20 ga teng bo'lsa, qayiq to'xtaguncha qancha masofani (m) bosib o'tadi? Qayiqning massasi 80 kg ga teng.
A) 21 B) 9 C) 10,5 D) 5,25

128. Gorizontol stolning chekkasidan 300 g massali va 50 sm uzunlikdagi bir jinsli ip butunlay osilib turibdi. Ipni stolga tortib chiqarish uchun qanday ish (J) bajarish zarur? Ishqalanishni hisobga olmang.
A) 1,85 B) 0,75 C) 0,37 D) 1,5
129. Gorizontol yo'ldagi m massali sharcha 80 m masofadagi devor tomonga 2 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. 50 m masofadan so'ng u $3m$ massali ikkinchi sharcha bilan to'qnashib, birgalikda harakatni davom ettirdi. Sharchalar devorga borib yetguncha jami qancha vaqt (s) kerak?
A) 30 B) 130 C) 85 D) 65
130. Yer sirtidan $v_0 = 20$ m/s tezlik bilan yuqoriga 1 kg massali sharcha otildi. Aynan shu lahzada boshqa xuddi shunday sharcha 30 m balandlikdan erkin tusha boshladi va t vaqtdan keyin birinchi sarcha bilan mutlaq noelastik to'qnashdi. Yerga urilish paytidagi sharchalarning to'liq mexanik energiyasi (J) nimaga teng bo'ladi?
A) 400 B) 500 C) 676 D) 578 @fizikaOnline
131. Yer sirtidan $v_0 = 20$ m/s tezlik bilan yuqoriga 1 kg massali sharcha otildi. Aynan shu lahzada boshqa xuddi shunday sharcha 30 m balandlikdan erkin tusha boshladi va t vaqtdan keyin birinchi sarcha bilan mutlaq noelastik to'qnashdi. Yerga noelastik urilganda sharchalar ichki energiyasi (J) o'zgarish moduli nimaga teng bo'ladi? Bunda mexanik energiyaning yarmi sharchalarning isishiga sarflanadi.
A) 338 B) 289 C) 250 D) 200
132. 1,5 m uzunlikdagi yengil sterjenning uclariga massalari 1 kg va 4 kg bo'lgan sharchalar birlashtirilgan. Sterjenning o'rtasidan unga perpendikulyar holda gorizontol o'q o'tgan bo'lib, sterjen o'q atrofiga aylana oladi. Sterjen gorizontol holatga keltirildi va qo'yib yuborildi. Sterjen vertikal holatga kelganida sharchalarning tezligi (m/s) qanday bo'ladi?
A) 2,5 B) 1 C) 3 D) 1,5
133. Yuk bikrligi 1 kN/m bo'lgan prujinaga osilgan va 1 sm amplituda bilan $x = A \sin(\omega t + \varphi_0)$ qonun bo'yicha tebranmoqda. Tebraning fazasi $\pi/6$ bo'lgan paytda mayatnikning kinetik va potensial energiyasi (mJ) aniqlansin.
A) 75; 50 B) 27,5; 72,5 C) 37,5; 12,5 D) 50; 150
134. Prujinali mayatnikning tebranish davri 0,25 s. Agar yukning massasi 100 g bo'lsa, prujinaning bikrligi (N/m) nimaga teng? $\pi \approx 3$
A) 100 B) 57,6 C) 40 D) 30,5
135. Shiftga vertikal birlashtirilgan va dastlab cho'zilmagan prujinaga 1,5 kg massali yuk osib qo'yib yuborildi. Prujinaning maksimal deformatsiyasi Δx_m ga teng. Uning deformatsiyasi $\Delta x_m/2$ teng bo'lganda yukning tezlanishi (m/s²) nimaga teng bo'ladi? Prujinaning bikrligi 150 N/m.
A) 0 B) 20 C) 30 D) 10 @fizikaOnline
136. Shiftga vertikal birlashtirilgan va dastlab cho'zilmagan prujinaga 1,5 kg massali yuk osib qo'yib yuborildi. Prujina maksimal cho'zilgandan so'ng qancha vaqt (s) o'tgach yukning tezligi yana nolga teng bo'ladi? Prujinaning bikrligi 150 N/m.
A) $\pi/4$ B) $\pi/20$ C) $\pi/5$ D) $\pi/10$
137. XOY tekislikda amplitudasi 10 mm bo'lgan yassi garmonik to'liqin OX o'qi bo'ylab tarqalmoqda. Koordinatasi $x = 6$ mm bo'lgan nuqtadagi zarraning muvozanat vaziyatidagi tezligi 20 sm/s. Shu zarraning muvozanat vaziyatidan siljishi 8 mm bo'lgandagi tezligi (sm/s) qanday bo'ladi?
A) 10 B) 20 C) 16 D) 12
138. XOY tekislikda amplitudasi 10 mm bo'lgan yassi garmonik to'liqin OY o'qi bo'ylab tarqalmoqda. Koordinatasi $y = 8$ mm bo'lgan nuqtadagi zarraning muvozanat vaziyatidagi tezligi 40 sm/s. Shu zarraning muvozanat vaziyatidan siljishi 6 mm bo'lgandagi tezligi (mm/s) qanday bo'ladi?
A) 320 B) 240 C) 400 D) 150
139. Bir xil bikrlidagi bir nechta prujinalarning parallel ulangandagi umumiy bikrligi ketma-ket ulangandagi umumiy bikrligidan 25 marta katta bo'lsa, prujinalar soni nechta?
A) 5 B) 50 C) 25 D) 625
140. 4 Hz chastota va 6 m/s tezlik bilan tarqalayotgan to'liqinning bir-biridan 150 sm masofadagi ikkita nuqtasining maksimal fazalar farqi nimaga teng?
A) $\frac{2\pi}{3}$ B) $\frac{\pi}{2}$ C) $\frac{3\pi}{4}$ D) 2π
141. Harakat tenglamasi $x = 3 \cos \pi t$ bo'lgan jism 0÷1,1 s vaqt intervalining necha sekundida tezlik bilan tezlanish yo'nalishi mos tushadi?
A) 1,1 B) 0,5 C) 0,6 D) 1
142. Harakat tenglamasi $x = 3 \cos \pi t$ bo'lgan jism 0÷1,4 s vaqt intervalining necha sekundida tezlik bilan tezlanish yo'nalishi mos tushadi?
A) 1,4 B) 1 C) 0,5 D) 0,9
143. Harakat tenglamasi $x = 3 \sin \pi t$ bo'lgan jism 0÷2,1 s vaqt intervalining necha sekundida tezlik bilan tezlanish yo'nalishi mos tushadi?
A) 1,1 B) 2,1 C) 1 D) 1,05 @fizikaOnline
144. Tubida kichik teshigi bo'lgan suv solingan chelak arqonga osilgan holda tebranmoqda. Vaqt o'tishi bilan chelakning tebranishlar davri qanday o'zgaradi?
A) avval kamayib, keyin ortadi B) uzliksiz kamayadi C) uzliksiz ortadi D) avval ortib, keyin kamayadi
145. Tubida kichik teshigi bo'lgan suv solingan chelak arqonga osilgan holda tebranmoqda. Vaqt o'tishi bilan chelakning tebranishlar chastotasi qanday o'zgaradi?
A) avval kamayib, keyin ortadi B) uzliksiz kamayadi C) uzliksiz ortadi D) avval ortib, keyin kamayadi
146. Tebranyotgan mayatnikning uzunligi 6 marta kamaytirilganda uning to'liq mexanik energiyasi o'zgarish uchun amplitudasini qanday o'zgartirish kerak?
A) 6 marta kamaytirish kerak B) $\sqrt{6}$ marta orttirish kerak C) 9 marta orttirish kerak D) $\sqrt{6}$ marta kamaytirish kerak
147. Tebranyotgan mayatnikning uzunligi 2 marta kamaytirilib, amplitudasi 5 marta orttirilsa, uning to'liq mexanik energiyasi qanday o'zgaradi?
A) 50 marta ortadi B) 10 marta kamayadi C) 10 marta ortadi D) 50 marta kamayadi
148. Areometr suyuqlikka botirilib, so'ngra qo'yib yuborildi. 1/8 s vaqt o'tgach u muvozanat vaziyatiga erishdi. Areometrning tebranish davri qanchaga (s) teng?
A) 0,75 B) 0,65 C) 0,5 D) 0,85
149. Osib qo'yilgan bir jinsli simning yuqori uchida 390 kPa mexanik kuchlanish qayd etilgan. Simning zichligi 6 g/sm³ bo'lsa, uning uzunligini (m) toping. $g = 10$ m/s²
A) 0,65 B) 7 C) 65 D) 6,5

150. Zichligi 7 g/sm^3 bo'lgan metall dan ko'ndalang kesimi 2 mm^2 , uzunligi 5 m bo'lgan sim cho'zilgan va bir uchidan osib qo'yilgan. Osish nuqtasidan $3,5 \text{ m}$ masofadagi nuqtada simdagi mexanik kuchlanish (kPa) topilsin. $g = 10 \text{ m/s}^2$
A) 245 B) 105 C) 0,105 D) 350

151. Radiolokator dan yuborilayotgan impuls larning takrorlanish chastotasi 2000 Hz ga, bitta impuls ning davomiyligi $1 \mu\text{s}$ ga teng. Oltita nishon lokator dan mos holda $0,090 \text{ km}$, $0,130 \text{ km}$, $9,0 \text{ km}$, $13,0 \text{ km}$ va $90,0 \text{ km}$ masofada turibdi. Lokator qaysi nishon larni topa olmaydi?
 $c = 300000 \text{ km/s}$.

- A) ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi
B) uchinchi, to'rtinchi va oltinchi
C) birinchi, beshinchi va oltinchi
D) birinchi, ikkinchi va beshinchi

@fizikaOnline

152. Kamerton tovushining balandligi temperatura ortishi bilan qanday o'zgaradi?

- A) ortadi B) kamayadi C) o'zgarmaydi
D) avval ortib, keyin kamayadi

153. Kamerton tovushining tebranishlar chastotasi temperatura ortishi bilan qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi B) ortadi C) o'zgarmaydi
D) avval ortib, keyin kamayadi

154. Kamerton tovushining tebranishlar davri temperatura ortishi bilan qanday o'zgaradi?

- A) kamayadi B) ortadi C) o'zgarmaydi
D) avval ortib, keyin kamayadi

155. Bir xil kapillyar naylar suvga va spirtga botirildi, bunda suv $14,4 \text{ sm}$, spirt esa $5,5 \text{ sm}$ balandlikka ko'tarildi. Spirtning zichligini (kg/m^3) toping. Suvning sirt taranglik koeffitsiyenti 72 mN/m , spirtniki 22 mN/m .


- A) 800 B) 55 C) 144 D) 72

156. "Elak bilan suv tashimoq" degan xalq iborasi bor. Suv elakni ho'llamaganda, sirt yuzasi $0,13 \text{ m}^2$ bo'lgan elakda necha litr suv tashish mumkin? Elakning har bir teshigi yuzasi 1 mm^2 bo'lgan kvadratchalardan iborat. $\sigma = 73 \text{ mN/m}$; $\rho = 1 \text{ g/sm}^3$.

- A) 3,8 B) 1,9 C) 4 D) 0,87

157. Xalq tilida "Elakda suv olib kelish" degan ibora bor. Yuzasi 25 sm^2 bo'lgan elakda ho'llanmaydigan va sirt taranglik koeffitsiyenti 40 mN/m bo'lgan suyuqlikdan necha millilitr olib kelish mumkin. Elakning kichik katakchasi yuzasi 1 sm^2 ga teng. A) 35 B) 44 C) 40 D) 12,5

158. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi ABCD ramkaning o'rtasiga yengil va ishqalanishsiz harakatlanadigan MN to'siq o'rnatilgan bo'lib, ramkaning AMND qismi sovun eritmasining pardasi, MBCN qismi esa suv pardasi bilan qoplangan. Sovun eritmasining sirt taranglik koeffitsiyenti 40 mN/m , suvniki 72 mN/m bo'lsa, MN to'siqqa suyuqlik pardalari tomonidan ta'sir qiluvchi natijaviy kuch qancha (mN) bo'ladi? AB tomon uzunligi 4 sm , BC tomon uzunligi $2,4 \text{ sm}$ ga teng.



@fizikaOnline

- A) 0,77 B) 0,9 C) 1,54 D) 1,8

159. Gaz bosimi 30 kPa va zichligi 1 kg/m^3 . Ushbu gazning o'rtacha kvadratik tezligini (m/s) toping.


- A) 3000 B) 300 C) 30 D) 3

160. 293 K da suvning solishtirma issiqlik sig'imi $4182 \text{ J/(K}\cdot\text{kg)}$ ga teng. 100°C da qaynayotgan suvning solishtirma issiqlik sig'imi ($\text{J/(K}\cdot\text{kg)}$) qanday bo'ladi?
A) 0 B) ∞ C) 3307 D) 4200

161. 303 K da suvning solishtirma issiqlik sig'imi $4178 \text{ J/(K}\cdot\text{kg)}$ ga teng. 100°C da qaynayotgan suvning solishtirma issiqlik sig'imi ($\text{J/(K}\cdot\text{kg)}$) qanday bo'ladi?
A) ∞ B) 0 C) 3600 D) 4200


162. Temperatura 100 K ga ortganda simning har bir metri $0,4 \text{ mm}$ ga uzayadi. Sim materialining chiziqli kengayish koeffitsiyentini ($1/\text{K}$) aniqlang.
A) $4 \cdot 10^{-4}$ B) $4 \cdot 10^{-5}$ C) $4 \cdot 10^{-3}$ D) $4 \cdot 10^{-6}$

163. Rasmda ideal gaz ustida bajarilgan sikl tasvirlangan. 1- va 3-nuqtalardagi harorat mos holda $T_1 = 500 \text{ K}$ va $T_3 = 820 \text{ K}$. 2-nuqtadagi T_2 harorat (K) nimaga teng? Gazning massasi va tarkibi o'zgarmas.



- A) 563 B) 763 C) 640 D) 711

164. Rasmda ideal gaz ustida bajarilgan sikl tasvirlangan. 2- va 3-nuqtalardagi harorat mos holda $T_2 = 400 \text{ K}$ va $T_3 = 800 \text{ K}$. 1-nuqtadagi T_1 harorat (K) nimaga teng? Gazning massasi va tarkibi o'zgarmas.



@fizikaOnline

- A) 314 B) 200 C) 350 D) 411

